

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Teperek A., Lima Santos L. Tourism as an indicator of integration with the world economy: The case of the world's 93 smallest economies generating 1% of global GDP //Advances in Tourism, Technology and Systems: Selected Papers from ICOTTS 2022, Volume 2. – Singapore : Springer Nature Singapore, 2023. – С. 449-464.
2. Wang Y., Tziamalīs A. International tourism and income inequality: The role of economic and financial development //Tourism Economics. – 2023. – Т. 29. – №. 7. – С. 1836-1864.
3. Ercik C., Kardaş K. Reflections of digital technologies on human resources management in the tourism sector //Worldwide Hospitality and Tourism Themes. – 2024. – Т. 16. – №. 5. – С. 646-663.

Zokir SODIKOV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrası dotsenti, i.f.n.

EKOTURIZMNING SIRKULYAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekoturizmning sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy etishdagi roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Global turizm sanoatining ekologik ta'sirlari, xususan, 3S (Dengiz-Qum-Quyosh) turizmining resurslarni haddan tashqari sarflash muammolari ko'rib chiqiladi. Ekoturizm barqarorlik, resurslar aylanishi, chiqindilarni kamaytirish va mahalliy jamiyatlarni qo'llab-quvvatlash orqali sirkulyar modelga o'tishga hissa qo'shishi ko'rsatilgan. Maqolada ekoturizm yashil iqtisodiyotning muhim vositasi sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: ekoturizm, sirkulyar iqtisodiyot, barqaror turizm, 3S turizmi, yashil iqtisodiyot, resurslar aylanishi, ekologik barqarorlik, mahalliy hamjamiyat.

Аннотация. В данной статье анализируются роль и значение экотуризма в практическом внедрении принципов циркулярной экономики. Рассматриваются экологические последствия глобальной туристической индустрии, в частности проблемы чрезмерного потребления ресурсов, характерные для туризма формата 3S (море–песок–солнце). Показано, что экотуризм способствует переходу к циркулярной модели посредством обеспечения устойчивого развития, рационального использования ресурсов, сокращения отходов и поддержки местных сообществ. В статье также экотуризм рассматривается как важный инструмент зелёной экономики.

Ключевые слова: Экотуризм, циркулярная экономика, устойчивый туризм, туризм 3S, зелёная экономика, циркуляция ресурсов, экологическая устойчивость, местное сообщество.

Abstract. This article analyzes the role and significance of ecotourism in implementing the principles of the circular economy in practice. It examines the environmental impacts of the global tourism industry, particularly the problem of excessive resource consumption associated with 3S tourism (Sea–Sand–Sun tourism). The study demonstrates that ecotourism contributes to the transition toward a circular model through sustainability, resource circulation, waste reduction, and support for local communities. The article also evaluates ecotourism as an important instrument of the green economy.

Keywords: Ecotourism, circular economy, sustainable tourism, 3S tourism, green economy,

Bugungi kunda global turizm sanoati jahon iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, ammo u katta ekologik yuklamaga ega. An'anaviy turizm, xususan, 3S (Sea-Sand-Sun – Dengiz-Qum-Quyosh) modeli dengiz qirg'oqlari, suv resurslari va plyajlarning ifloslanishiga, chiqindilar ko'payishiga va biologik xilmaxillikning kamayishiga olib kelmoqda. Sirkulyar iqtisodiyot esa "ishlab chiqar – iste'mol – utilizatsiya" liniyasidan voz kechib, "qayta ishlatish, qayta tiklash va regeneratsiya" aylanishiga o'tishni nazarda tutadi.

Ekoturizm tabiatni saqlash, mahalliy aholini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va resurslardan samarali foydalanish orqali sirkulyar tamoyillarni amalda ko'rsatishi mumkin. O'zbekistonda "Yashil iqtisodiyot" va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyalari doirasida ekoturizmning o'rni tobora ortib bormoqda. Bu mavzu ekologik muammolar va iqtisodiy rivojlanishni uyg'unlashtirish nuqtai nazaridan dolzarbdir. Ekoturizmning sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishdagi nazariy va amaliy ahamiyatini ochib berish hamda mahalliy sharoitda qo'llash imkoniyatlarini asoslash muhim maqsad hisoblanadi. Shu bois undan kelib chiqadigan vazifalar:

- Ekoturizm va sirkulyar iqtisodiyot tushunchalarini nazariy jihatdan tahlil qilish;
- 3S turizmining ekologik muammolarini ko'rib chiqish;
- Ekoturizmning resurslar aylanishi, chiqindilarni boshqarish va mahalliy iqtisodiyotga ta'sirini ochib berish;
- Xalqaro va milliy tajribalarni umumlashtirish;
- Amaliy takliflar ishlab chiqish kabilardan iborat.

Ekoturizm va sirkulyar iqtisodiyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik jarayoni obyekt hisoblanadi. Ekoturizm faoliyatining sirkulyar tamoyillarni (qayta foydalanish, kam chiqindi, regeneratsiya) joriy etish mexanizmlari predmet sifatida namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda global miqyosda odamlarning turizmga bo'lgan umidlarida farqlar mavjud. An'anaviy 3S turizmi (Dengiz-Qum-Quyosh) ko'pincha ommaviy turizmga asoslanib, faoliyat olib borishi tabiat va ekologiyaga katta zarar yetkazadi. Bu model dengiz suvlarining ifloslanishi, qum plyajlarining eroziyasi va yuqori resurs sarfini keltirib chiqaradi. Ekoturizm esa tabiatni muhofaza qilish, mahalliy aholining ishtiroki va atrof-muhitga minimal ta'sirni ta'minlaydi. U tabiiy hududlarga mas'uliyatli sayohatni rag'batlantiradi va kelgusi avlodlar uchun resurslarni saqlashga xizmat qiladi.

Sirkulyar iqtisodiyot resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni minimallashtirish va materiallar aylanishini ta'minlaydi (7R tamoyili: Reduce, Reuse, Recycle, Repair, Refurbish, Recover, Regenerate). Turizm sohasida bu energiya tejash, suvni qayta ishlatish, chiqindilarni qayta ishlash, mahalliy mahsulotlardan foydalanish va ekologik infratuzilmani rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Ekoturizm bu tamoyillarni tabiiy ravishda qo'llaydi: mehmonxonalar chiqindilarni ajratib yig'adi, ovqatlanishda mahalliy organik mahsulotlar ishlatiladi, sayyohlar ta'lim oladi va mahalliy jamiyatlarga daromad keltiradi.

Ekoturizmning iqtisodiy va ekologik samaralari mavjud bo'lib, ular, ekologik

jihatdan biologik xilma-xillikni saqlash, tabiatni tiklash, iqtisodiy jihatdan yangi ish o‘rinlari yaratish, mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish, valyuta tushumlari oshirish, ijtimoiy jihatdan mahalliy aholining daromadini oshirish va madaniy merosni saqlash tarzida yuzaga chiqadi. Zero, mamlakatda tog‘lar, ko‘llar va milliy bog‘lar kabi salohiyatning mavjudligi ekoturizm uchun katta potensial hisoblanadi. Sirkulyar yondashuv chiqindilarni boshqarish va suv resurslarini tejashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ekoturizm – tabiatni muhofaza qilish, mahalliy jamiyatni qo‘llab-quvvatlash va sayyohlarga ta‘lim berishga asoslangan mas‘uliyatli turizm turi bo‘lsa, sirkulyar iqtisodiyot esa an‘anaviy “olish-ishlab chiqarish-iste‘mol-tashlab yuborish” (linear) modeldan farqli o‘laroq, resurslarni uzoq muddat saqlash, qayta ishlatish, qayta ishlash va tabiiy tizimlarni regeneratsiya qilishga asoslanadi (Reduce, Reuse, Recycle, Regenerate – 7R tamoyili). Shu bois, ekoturizm sirkulyar iqtisodiyotning tabiiy amaliyoti hisoblanadi, chunki u resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish va mahalliy iqtisodiyotni yopiq aylanishga kiritish orqali barqaror rivojlanishni ta‘minlaydi.

Shuning uchun linear modelning muammolari sifatida turizm sanoati (ayniqsa, 3S – Dengiz-Qum-Quyosh) katta chiqindilar (plastmassa, oziq-ovqat chiqindilari), suv va energiya sarfi, CO₂ emissiyasi va biologik xilma-xillikning yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Jahon turizmining 75% CO₂ emissiyasi transportdan kelib chiqadi. Shu bois, sirkulyar iqtisodiyot tamoyillari turizmدا resurslar aylanishi, chiqindisiz ishlab chiqarish, mahalliy yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik, mahsulotlarning uzoq umr ko‘rishi va regeneratsiya orqali ahamiyatli hisoblanadi. Ekoturizm bu tamoyillarni tabiiy ravishda qo‘llaydi va natijada minimal ta‘sir, mahalliy resurslardan foydalanish, ta‘lim va qayta tiklash ta‘minlanadi.

Barqarorlikdan regenerativ turizmga o‘tish – bu ekoturizm nafaqat zararni kamaytiradi, balki tabiatni tiklaydi (regenerative tourism). Sirkulyar model iqtisodiy o‘sishni resurs sarfidan ajratadi (decoupling). Shuning uchun uning nazariy afzalliklari ekologik jihatdan resurslarni tejash, chiqindilarni minimallashtirish, biologik xilma-xillikni saqlash, iqtisodiy jihatdan yangi ish o‘rinlari yaratish, mahalliy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, xarajatlarni kamayishi (energiya, suv, chiqindi), raqobatbardoshlikni oshishi (ESG standartlari), ijtimoiy jihatdan mahalliy jamiyatlarni kuchaytirish, madaniy merosni saqlash, sayyohlar uchun mazmunli tajriba yaratish sifatida kelib chiqadi. Nazariy jihatdan, ekoturizm sirkulyar iqtisodiyotning turizm sohasidagi amaliy ko‘rinishi bo‘lib, UN Tourism va Ellen MacArthur Foundation kabi tashkilotlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Global miqyosda amaliy jihatlardan chiqindilarni boshqarish uchun mehmonxonalar chiqindilarni ajratib yig‘ish, kompostlash, qayta ishlash (plastmassa Initiative), suv va energiya resurslarini tejash uchun yomg‘ir suvini yig‘ish, quyosh panellarini o‘rnatish, suvni qayta ishlatish tizimlarini barpo qilish, mahalliy zanjirlar orqali mahalliy organik ovqat, homestay mehmonxonalar, qayta ishlatiladigan materiallardan infratuzilma yaratish ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Italiya, Ispaniya va Janubiy Koreyadagi qishloq ekoturizm loyihalari (abandoned binolarni qayta ishlatish), Indoneziya va Tailanddagi qishloq ekoturizmida sirkulyar modelni ko‘rish mumkin. bugungi kunda, UN Tourismning Global Tourism Plastics Initiative va Food Waste Reduction Roadmap kabi loyihalari amaliy natijalar beradi.

O‘zbekiston “Yashil iqtisodiyot” va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida sirkulyar tamoyillarni joriy etishni belgilagan. Shuning uchun ekoturizm bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, muvaffaqiyatli loyiha sifatida Zomin Milliy bog‘i va Ugam-Chotqol trekking, mahalliy homestay, chiqindilarni boshqarishni, Sentob qishlog‘i (Nuratau): Agroturizm + homestay – organik mahsulotlar, kam chiqindi, mahalliy daromadni, Aydarko‘l va Quyi Amudaryo biosfera rezervatidagi tabiatni tiklash, ta‘lim, jeep-safari va qayiq sayohatlarini sirkulyar yondashuv orqali tashkil etilmoqda. Shuningdek, Kitob geologik bog‘i, Boysun tog‘lari shular jumlasidan hisoblanadi. Amaliy mexanizmlar sifatida chiqindilarni ajratib saralash va qayta ishlash (mehmon uylari va lagerlarda), suv tejash va yomg‘ir suvidan foydalanish, mahalliy mahsulotlar (organik ovqat, hunarmandchilik) taklif qilish, mahalliy aholini o‘qitish vayangi ish o‘rinlariga jalb qilish, shuningdek, dor yo‘llari, ekologik infratuzilmalarni barpo qilish lozim. Bu borada muhim muammolar infratuzilma yetishmasligi, chiqindi tizimining zaifligi, massaviy turizm bosim, Ta‘lim va standartlar yetarli emas. Shu bois:

- Ekoturizm zonalari uchun sirkulyar standartlarni (chiqindisiz, qayta foydalanish) joriy etish;
- Mahalliy aholi va tadbirkorlar uchun o‘quv dasturlarini tashkil qilish;
- Davlat va xususiy sektor hamkorligida yashil infratuzilmani rivojlantirish;
- O‘zbekistonda “Ekoturizm va sirkulyar iqtisodiyot” milliy strategiyasini ishlab chiqish;
- Xalqaro tajribalarni (masalan, Yevropa va Osiyo mamlakatlari) o‘rganish va ularni mahalliy bozor sharoitlariga moslashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). 2019–2030-yillarda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (PQ-4477-son, 4-oktabr).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). 2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga o‘tish islohotlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari (PQ-436-son, 2-dekabr).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida (PF-5-son, 4-yanvar).
4. Ellen MacArthur Foundation. (2019). Completing the picture: How the circular economy tackles climate change. <https://ellenmacarthurfoundation.org/completing-the-picture>
5. European Commission. (2020). A new circular economy action plan: For a cleaner and more competitive Europe. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:52020DC0098>
6. Fullerton, D., & Metcalf, G. E. (2001). Environmental controls, scarcity rents, and pre-existing distortions. *Journal of Public Economics*, 80(2), 249–267. [https://doi.org/10.1016/S0047-2727\(00\)00112-1](https://doi.org/10.1016/S0047-2727(00)00112-1)
7. Geissdoerfer, M., Savaget, P., Bocken, N. M. P., & Hultink, E. J. (2017). The circular economy – A new sustainability paradigm? *Journal of Cleaner Production*, 143, 757–768. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2016.12.048>

8. Korhonen, J., Honkasalo, A., & Seppälä, J. (2018). Circular economy: The concept and its limitations. *Ecological Economics*, 143, 37–46. <https://doi.org/10.1016/j.ecolecon.2017.06.041>
9. OECD. (2021). Policy instruments for the environment. OECD Publishing.
10. Pigou, A. C. (1920). The economics of welfare. Macmillan.
11. World Bank. (2020). Resource efficiency and circular economy in developing countries. World Bank Group.

Nazira AZIZOVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, i.f.n.

JAHON TURIZM BOZORI RIVOJLANISHIDA YANGI OMILLAR, IMKONIYATLAR VA TENDENSIYALAR

Annotatsiya. 2020-2021-yillardagi pandemiya inqirozi xalqaro turizm bozorida o'zgarishlarga olib keldi, bu yerda turistik dam olishning yangi tendensiyalari va yo'nalishlari paydo bo'ldi. 2024-yilda xalqaro turizmning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar qatoriga geosiyosiy xatarlar va sanksiya cheklovlarining kuchayishi bilan kechadigan o'zgaruvchan jahon tartibi sharoitlari kiradi. Ilmiy maqolaning maqsadi aniqlangan beqarorlik va omonotsizlik davrida xalqaro turizmni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va yo'nalishlarini tahlil qilishdan iborat.

Kalit so'zlar: xalqaro turizm; turistik xizmatlar; turistik dam olish; xalqaro turizm yo'nalishlari, barqaror turizm, innovatsiyalar.

Abstract. The crisis of the 2020-2021 pandemic has led to changes in the international tourism market, where new trends and directions of tourist recreation have appeared. In 2024, the factors influencing the transformation of international tourism include the conditions of the changing world order, accompanied by an increase in geopolitical risks and sanctions restrictions. The purpose of the scientific article is to analyze current trends and trends in the development of international tourism during the period of revealed instability and instability.

Keywords. international tourism; tourist services; tourist holidays; international tourism destinations, sustainable tourism, innovations.

Аннотация. Пережитый кризис пандемии 2020-2021 гг. привел к изменениям на рынке международного туризма, где появились новые тенденции и направления туристического отдыха. В 2024 г. к факторам, влияющим на трансформацию международного туризма, относятся условия меняющегося мирового порядка, сопровождающегося увеличением геополитических рисков и санкционных ограничений. Целью научной статьи является анализ современных тенденций и направлений развития международного туризма в период выявленной нестабильности и неустойчивости.

Ключевые слова. международный туризм; туристические услуги; туристический отдых; направления международного туризма, устойчивый туризм, инновации.

Xalqaro turizm jahon yalpi mahsulotining 10,34 foizini, tovarlar va xizmatlar eksporti umumiy hajmining 7 foizini, xizmatlar xalqaro savdosining 28 foizini yaratib, 330 million kishining bandligi va daromadini ta'minlab, jahon iqtisodiyoti, xalqaro savdoning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shmoqda. Kirish turizmi milliy iqtisodiyotlar va ularning sayyohlar oqimiga eng ko'p bog'liq bo'lgan hududlarining